

# YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 26 695,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 13 980,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,4 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018-yil yanvar-dekabriga nisbatan, % da
	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>21 158,3</b>	<b>26 695,0</b>	<b>106,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 815,6	24 489,4	106,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 342,7	2 205,6	107,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>19 815,6</b>	<b>24 489,4</b>	<b>106,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10 003,5	11 262,0	104,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 237,5	6 226,1	110,8
sanoat	2 658,1	4 304,6	108,9
qurilish	1 579,4	1 921,5	114,1
Xizmatlar	5 574,6	7 001,3	105,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 498,6	1 747,4	102,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 313,1	1 469,4	104,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2 762,9	3 784,5	107,2

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i – 104,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 46,0 %), sanoat – 108,9 % (17,6 %), qurilish – 114,1 % (7,8 %) xizmatlar – 105,2 % – (28,6 %) ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar - dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### *Iqtisodiy faoliyat turlari*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar YaHMning 91,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,3 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 4,5 % punktga kamaydi va hisobot yilida 46,0 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 4,0 % punktga oshdi va 25,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi va 2018-yil mos davri (28,1 %) bilan taqqoslanganda 0,5 % punktga ko'paydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-dekabr



2019-yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,1 % ni (2018-yil yanvar-dekabr – 7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0 % ni (6,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,5 % ni (13,9 %) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-dekabr



2019-yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: M.Hamroev  
(0371) 230-82-98